XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 26-noyabr VII-16-141-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-031-7-96-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 147-moddasiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-son qarori ijrosini ta’minlash, Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning 2025-yil 5-noyabrdagi 02/02-38-824-sonli xatiga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-2-031-7-96-K/24-sonli qaroriga o‘zgartish kiritish to‘g‘risidagi taklifini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi yettinchi chaqiriq o‘n oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning 2025-yil 5-noyabrdagi 02/02-38-824-sonli xati, hamda mazkur qarorning loyihasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalida (https://regulation.gov.uz/oz/d/110258) 2025-yil 6-21-noyabr kunigacha muhokamada turganligi hamda Kattaqo‘rg‘on tuman adliya bo‘limi tomonidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini huquqiy ekspertizadan o‘tkazish yuzasidan tuman adliya bo‘limining 2025-yil 25-noyabrdagi 11-sonli huquqiy xulosasida ijobiy baholanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagidalar:

xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashi 2024-yil 27-dekabr “Kattaqo‘rg‘on tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-2-031-7-96-K/24-sonli qarorining 1-ilovasi 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrda “Kattaqo‘rg‘on tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-2-031-7-96-K/24-sonli qarorining 2-ilovasi 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Kattaqo‘rg‘on tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov) tuman mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlar va xarajatlar rejalariga tegishli o‘zgartirish kiritsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudoyberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **NASRIDDINOV JAMSHID TULKINOVICH**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-16-141-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on tumani mahalliy budjeti daromadlarning 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

TR	Daromad turlari	Jami *(ming so‘mda)*
	Jami	**172 049 991**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	10 584 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	55 209 660
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 110 000
4	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishdan to‘lanadigan aksiz solig‘i	13 765 080
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 091 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	15 995 051
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 218 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	44 746 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	810 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 343 200
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	178 000

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 26-noyabrdagi
VII-16-141-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Kattaqo‘rg‘on tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

T/R	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor *(ming so‘mda)*
	Xarajatlar miqdori, jami	**172 049 991**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	55 168 914
	shundan:	
	"Mening maktabim"	6 379 822
2	Madaniyat bo‘limi	8 018 041
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	7 471 978
4	Sport bo‘limi	3 908 204
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 116 116
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	5 266 951
7	Suv yetkazib berish xizmati	2 200 000
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	1 993 085
9	Hokimyat	59 365 973
	shundan:	
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	55 125

	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	40 275 787
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	7 396 000
	Zahira jamg‘armasi	1 996 214
10	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	708 949
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	75 121
	Axborot-kutubxona markazlari	633 828
11	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	21 969 780